



PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF UNIVERSAL HUMAN VALUES IN MODERN SOCIETY

Mokhidil Koraboyeva

Independent Researcher

Department of Philosophy and National Idea

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: universal human values, modern society, philosophical analysis, moral, consciousness, intercultural communication, globalization, social development, humanism.

Received: 11.02.26

Accepted: 12.02.26

Published: 13.02.26

Abstract: This article provides a philosophical analysis of universal human values within the context of modern society. In the conditions of globalization, intensified intercultural interactions, and the expansion of the information space, the content and significance of universal values are being reinterpreted. The study focuses on fundamental values such as humanism, justice, freedom, and responsibility, emphasizing their role in ensuring social stability and moral development. The findings of the research contribute to the theoretical understanding of moral consciousness and support the promotion of social cohesion in contemporary societies.

ZAMONAVIY JAMIYARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING FALSAFIY TAHLILI

Moxidil Qoraboyeva

Mustaqil izlanuvchisi

Falsafa va milly g'oya kafedrası

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy jamiyat, falsafiy tahlil, axloqiy ong, madaniyatlararo muloqot,

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyat sharoitida umuminsoniy qadriyatlarning falsafiy mohiyati va ularning ijtimoiy hayotdagi o'rnini tahlil qilinadi.

globallashuv,
insonparvarlik.

ijtimoiy

taraqqiyot,

Globallashuv jarayonlari, madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi va axborot makonining kengayishi sharoitida umuminsoniy qadriyatlarning mazmuni va ahamiyati qayta talqin etilmoqda. Tadqiqotda insonparvarlik, adolat, erkinlik va mas'uliyat kabi asosiy qadriyatlarning ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy taraqqiyotdagi roli falsafiy yondashuvlar asosida yoritilgan. Maqola natijalari zamonaviy jamiyatda axloqiy ongni shakllantirish va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Мохидил Корабоева

Независимый исследователь, кафедра философии и национальной идеи

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые

общечеловеческие ценности, современное общество, философский анализ, нравственное сознание, межкультурная коммуникация, глобализация, социальное развитие, гуманизм.

слова:

Аннотация:

В статье проводится философский анализ общечеловеческих ценностей в условиях современного общества. В контексте глобализационных процессов, усиления межкультурных связей и расширения информационного пространства переосмысливается содержание и значение универсальных ценностей. Особое внимание уделяется таким ценностям, как гуманизм, справедливость, свобода и ответственность, а также их роли в обеспечении социальной стабильности и духовного развития общества. Результаты исследования способствуют формированию нравственного сознания и укреплению социальной гармонии в современном мире.

Kirish. Falsafada “qadriyat” tushunchasi insonning dunyoga, jamiyatga va o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi eng muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Qadriyatlar inson faoliyatini yo'naltiradi, ma'naviy tanlovlarini belgilaydi va ijtimoiy hayotning mazmun-

mohiyatini shakllantiradi. Shu bois qadriyat tushunchasini falsafiy jihatdan tahlil qilish inson mavjudligining ma'nosi, maqsadi va ideallarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, "ontologiya nuqtai nazaridan qadriyat inson va borliq o'rtasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Qadriyatlar narsa va hodisalarning o'z-o'zidan emas, balki inson ehtiyoji, manfaati va tajribasi bilan bog'liq holda ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi"[1]. Demak, qadriyat borliqning ob'ektiv xususiyati emas, balki insonning unga nisbatan ma'no yuklash jarayonida shakllanadi. Shu ma'noda qadriyatlar borliqni inson uchun "ma'nodor borliq"ga aylantiradi.

Ikkinchidan, qadriyat tushunchasi bilish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Inson atrof-muhitni bilish jarayonida faqatgina haqiqatni emas, balki uning ahamiyatini ham anglaydi. Gnoseologik nuqtai nazardan qadriyatlar bilimni tanlash, baholash va talqin qilish mezoni vazifasini bajaradi. Ilmiy, axloqiy yoki estetik bilimning qadriyatga aylanishi uning inson hayotiga qanchalik ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi.

Uchinchidan, qadriyat tushunchasi aksiologiya – qadriyatlar haqidagi ta'limotning markaziy kategoriyasidir. Aksiologiyada qadriyatlar "yaxshilik-yomonlik", "go'zallik-xunuklik", "adolat-zulm" kabi qarama-qarshiliklar orqali namoyon bo'ladi. Bu jihatdan qadriyat insonning baholovchi munosabatini ifodalaydi va uning axloqiy, estetik hamda ijtimoiy ideallarini shakllantiradi. Qadriyatlar orqali inson o'z faoliyatining maqsadi va mazmunini belgilaydi.

To'rtinchidan, qadriyatlar faqat nazariy tushuncha bo'lib qolmasdan, ijtimoiy amaliyotda real namoyon bo'ladi. Ular ijtimoiy me'yorlar, an'analar, qonunlar va institutlar orqali mustahkamlanadi. Jamiyat taraqqiyoti davomida qadriyatlar tizimi o'zgarib boradi, ayrim qadriyatlar eskiradi, yangilari shakllanadi. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar muayyan tarixiy o'zgarishlarga qaramay, barqaror ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

Beshinchidan, falsafiy nuqtai nazardan qadriyatlar shaxs ma'naviyatining asosiy mezoni hisoblanadi. "Inson o'z qadriyatlari orqali o'zligini anglaydi, hayot maqsadini belgilaydi va axloqiy mas'uliyatni his etadi. Qadriyatlar shaxsning ichki dunyosi bilan tashqi ijtimoiy muhit o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi. Shu bois qadriyatlarning shakllanishi tarbiya, ta'lim va madaniy muhit bilan chambarchas bog'liqdir"[2].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Qadriyatlarga axloqiy-etik hodisalar sifatida yondashish u yoki bu darajada barcha adabiyotlarda mavjud. Biroq ayrim mualliflar qadriyatlardagi ushbu belgilarni mutlaqlashtirishga moyildirlar. Masalan, A.I.Kravchenko qadriyatlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Qadriyatlar, - deb yozadi u, - ko'pchilik kishilar tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadigan ezgulik, adolat, vatanparvarlik, romantik sevgi, do'stlik kabi hodisalar haqidagi

tasavvurlardir... Qadriyatlar shubha ostiga olinmaydi, ular barcha kishilar uchun etalon, ideal bo'lib xizmat qiladi"[3].

R.Nurmuhamedov va I.Yunusovlar insonning qadr-qimmati va “qadriyat” tushunchasini aynanlashtirishga harakat qilishgan “Qadr-qimmat-axloq tushunchasi bo'lib, odamni ma'naviy tomondan to'liq baholashga ishlatiladi. Shu bilan birga odamning o'z-o'ziga va jamiyat unga shaxs sifatida beradigan qadriyatni ham ko'rsatadi”[4]. Mualliflar ushbu ta'rifni kengroq ochib bermaydilar. Ular qadr-qimmatni shunchaki izohlash bilan cheklanadilar. Aslida o'zbek tilida chop etilayotgan deyarli barcha adabiyotlarda qadr-qimmat, qadriyat, shaxs qadri, inson qimmati kabi atamalar, haqli tarzda, yonma-yon ishlatiladi, goho ular sinonim kategoriyalar sifatida keladi. Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv mohiyatan to'g'ri bo'lsa-da, hodisalar va voqealar ifodasiga etimologiya hamdagermenevtika nuqtai nazaridan qaraganda yuqoridagi tushunchalar o'rtasidama'lum bir farqlar borligini ko'rsatadi. Qadriyatlar ushbu kategoriyalardan keng bo'lib, ular ushbu kategoriyalar uchun genezis, asosvazifasini o'tagan. Qadr-qimmat, shaxs qadri, inson qimmati kabikategoriyalar faqat insonga nisbatan ishlatiladi; inson xatti-harakatlari, tushunchalari, xislat va fazilatlari ularning ifoda ob'ektidir. Qadriyatlar esa “insonlardan tashqarida” (V.A.Abushenko) ham bo'lishi mumkin. Tushunchani ta'riflash uning hamma belgilarini emas, balki muhim belgilarini ko'rsatib berish demakdir. Biroq tushunchani ta'riflash, bu – o'sha tushunchada ifoda etiladigan predmetlarning har tomonlama aks etishi degan so'z emas. Tushuncha ta'rifida uning eng muhim belgilarigina ajratib ko'rsatilishi kerak[5]. Shu ma'noda Q.Nazarov to'g'ri ta'kidlanidek, qadriyat tushunchasini haddan tashqari keng talqin etish ham, uning ma'nosini toraytirish ham birdek xatodir. Qadriyat falsafiy tushunchadir. U ilmiy tushunchalardan farqli ravishda obrazli-mavhum tushunchadir. Ya'ni qadriyat deganda hamisha ijobiylik, foydalilik, yoqimlilik, taraqqiyot, go'zallik, insoniylik, ezgulik tasavvuri o'z-o'zidan namoyon bo'ladi[6]. Shu o'rinda M.S.Kagan mulohazalari e'tiborga loyiqdir. Uning yozishicha, qadriyatni uning ob'ektidan farqlamaslik, ya'ni ularni ayniylashtirish ham, yoki uni “foydalilik”, “keraklilik” singari ob'ektiv holatlar bilan tenglashtirish ham birday xatodir [7]. Bizning fikrimizcha, qadriyatlarni ta'riflashda uni madaniyat bilan ayniylashtirish yoki “xalqning ma'naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida qadrlanib kelingan ma'naviy-ruhiy xatti-harakatlar, narsa va hodisalar majmui sifatida ta'riflash, afsuski, qadriyatlar to'g'risida aniq va konkret tasavvur hosil qilishga imkon bermaydi.

Qadriyatlar mohiyatini falsafiy-aksiologik jihatdan to'g'ri tushunishda Q.Nazarovning mulohazalari e'tiborga loyiqdir: “Qadriyat biror-bir tarzda, shaklda zohir bo'ladigan, sub'ekt uchun muayyan ta'sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko'rinishlari,

narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqalarning sub'ekt uchun ijtimoiy ahamiyatli va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir"[8].

“Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”[9].

“Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, mada-niy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha”[10], - degan ta'riflar berilgan. Bu esa, o'z navbatida, qadriyatlarning ahamiyatini ko'rsatmoqda.

B.Ziyomuhammadov o'zining “Komillikka eltuvchi kitob” asarida “Qadriyat” so'ziga quyidagicha ta'rif beradi: “kishini qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh yo konkret bir millat yoxud butun inso-niyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlarini qadriyat”[11] deyiladi.

Natijalar va muhokama

Qadriyatlar – umumbashariy, milliy va shaxsiy bo'lishi mumkin:

1) Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlari-ni, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umum-bashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, umumbashariy abadiy qadriyatlardir;

2) Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, urf-odat va an'analari, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir;

3) Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e'tiqodi, umr ma'nosi, odobi, go'zalligi bilan bog'liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir[12].

Qadriyatlar shaxs ma'naviy kamolotning barcha bosqichlarida komillik sari intilayotgan har bir kishining dunyoqarashiga o'zining faol ta'sirini o'tkazadi.

Qadriyatlar ikkita katta turkumga, ya'ni bashariyat va tabiatga hamda jamiyat va insoniyatga daxldor qadriyat shakllariga bo'linadi.

Bashariyat va tabiatga doir qadriyatlar – umumbashariy va umumsayyoraviy, mintaqaviy va mintqa ichidagi joy bilan bog'liq (lokal) hamda insonning biologik, tabiiy - tarixiy qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Jamiyat va insoniyatga daxldor qadriyatlarga esa umumijtimoiy va umuminsoniy, jamiyat hayoti, ijtimoiy ong sohalari va sub'ektlariga turmush, oila va jamoa hayotiga oid qadriyat hamda insonning ijtimoiy, shaxsiy-individual qadriyatlari kiradi.

Globalashuv, raqamlashuv va ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlari kuchaygan hozirgi zamonda umuminsoniy qadriyatlar masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Umuminsoniy qadriyatlar – millat, din, irq va hududiy farqlardan qat’i nazar, butun insoniyat uchun umumiy bo’lgan axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy me’yorlar tizimidir. Adolat, inson huquqlari, erkinlik, tinchlik, bag’rikenglik va hamjihatlik kabi qadriyatlar zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ma’naviy poydevorini tashkil etadi.

Birinchidan, inson huquqlari va qadr-qimmatining ustuvorligi. Zamonaviy jamiyatda umuminsoniy qadriyatlarning eng muhim ko’rinishlaridan biri – inson huquqlari va qadr-qimmatini e’tirof etishdir. “Inson shaxs sifatida oliy qadriyat deb qaralishi demokratik jamiyatning asosiy mezoni hisoblanadi. Xalqaro huquqiy hujjatlar, konstitutsion islohotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan umuminsoniy yondashuvning amaldagi ifodasidir”[13]. Bu jarayon jamiyatda qonuniylik, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, bag’rikenglik va madaniy xilma-xillik. Zamonaviy jamiyatda etnik, diniy va madaniy xilma-xillikning kuchayishi bag’rikenglik qadriyatini yanada dolzarb qiladi. “Bag’rikenglik – turli qarashlar, urf-odatlar va e’tiqodlarga hurmat bilan munosabatda bo’lishni anglatadi. Ayniqsa, global migratsiya va axborot almashinuvi sharoitida ushbu qadriyat ijtimoiy barqarorlikni saqlashning muhim omiliga aylanmoqda”[14]. Madaniy muloqot va sivilizatsiyalar o’rtasidagi hamkorlik umuminsoniy qadriyatlarning amaliy namoyon bo’lish shakli sifatida jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Uchinchidan, ijtimoiy mas’uliyat va hamjihatlik. Umuminsoniy qadriyatlar zamonaviy jamiyatda ijtimoiy mas’uliyat hissining ortishida ham namoyon bo’ladi. Ekologik muammolar, ijtimoiy tengsizlik, kambag’allik va global inqirozlar insoniyatni o’zaro hamjihatlikka undamoqda. Volontyorlik harakatlari, xayriya faoliyati va fuqarolik tashabbuslari insonparvarlik va o’zaro yordam qadriyatlarining real ijtimoiy amaliyotga aylanganini ko’rsatadi.

To’rtinchidan, raqamli makonda axloqiy me’yorlar. Axborot texnologiyalari rivoji umuminsoniy qadriyatlarning yangi – raqamli makondagi ko’rinishlarini yuzaga chiqardi. “Internet va ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy mas’uliyat, shaxsiy daxlsizlik, so’z erkinligi va axborot xavfsizligi masalalari umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog’liqdir. Raqamli madaniyatning shakllanishi axloqiy me’yorlarni zamonaviy sharoitga mos ravishda qayta talqin qilishni taqozo etmoqda. zamonaviy jamiyatda umuminsoniy qadriyatlar inson huquqlari, bag’rikenglik, ijtimoiy hamjihatlik va raqamli axloq kabi sohalarida yaqqol namoyon bo’lmoqda”[15]. Ushbu qadriyatlar jamiyatning barqaror rivojlanishi, ma’naviy yuksalishi va global muammolarni birgalikda hal etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, umuminsoniy

qadriyatlarni asrash va rivojlantirish zamonaviy jamiyat oldida turgan strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Umuminsoniy qadriyatlar insoniyat taraqqiyoti davomida shakllangan, millat, din va madaniy farqlardan ustun turadigan ma'naviy-axloqiy mezonlar tizimini ifodalaydi. Ular inson hayotiga ma'no bag'ishlaydi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda sivilizatsion taraqqiyotning umumiy yo'nalishini belgilaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni tasniflash masalasi falsafada muhim nazariy muammo bo'lib, ularning mohiyati, tuzilishi va amaliy ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Axloqiy qadriyatlar jamiyatda ishonch, hamjihatlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. "Ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan umuminsoniy qadriyatlarga inson huquqlari, tenglik, qonuniylik, demokratiya va fuqarolik jamiyati g'oyalari kiradi. Ushbu qadriyatlar davlat va jamiyat munosabatlarini tartibga soladi, shaxs erkinligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Ular zamonaviy jamiyatda siyosiy barqarorlik va huquqiy madaniyatni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Ma'naviy-madaniy qadriyatlar insonning ichki dunyosi va ijodiy salohiyati bilan bog'liqdir. Bu guruhga ma'rifat, bilim, madaniyat, estetik did, go'zallik va ijod erkinligi kiradi. Ushbu qadriyatlar shaxs ma'naviyatini yuksaltirish, jamiyatda intellektual taraqqiyotni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Umuminsoniy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish zamonaviy sivilizatsiya oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Harris, S. – The Moral Landscape: How Science Can Determine Human Values – New York, NY – Free Press – 2010. –Pp. 32.
2. Sen, A., Nussbaum, M. C. & Smith, A. (ed.) – Philosophy and Public Affairs on Values and Rights – Princeton, NJ – Princeton University Press – 2020. –Pp. 56.
3. Кравченко А.И. Социология. – М.: «Логос» Екатеринбург, Деловая книга, 1999. – С.168.
4. Нурмухамедов Р., Юнусов И. Маънавият, этика ва эстетика тарбиси. – Т.: Ибн Сино, 2000. – Б.39-40.
5. Раҳимов И. Мантиқ. - Т.: Университет, 1994. – Б.78.
6. Назаров Қ. Аксиология (Қадриятлар фалсафаси). – Т.: Академия, 2011. – Б.25.
7. Каган М.С. Системный подход и гуманитарное знание. – Л.: Наука, 1991. – С.196.
8. Назаров Қ. Аксиология. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: Маънавият, 1998. – Б.41.

9. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. “Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”. Т; 2010. Б. 707.
10. Тарбия энциклопедияси. –Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. Б.509.
11. Зиёмуҳаммадов Б. Комилликка элтувчи китоб. – Т.: “TURON-IQBOL” нашриёти, 2006. Б.73.
12. Тарбия энциклопедияси. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. –Б. 509-510.
13. Le Moli, G. Human Dignity in International Law. – Cambridge.: Cambridge University Press. 2021 –Pp. 80.
14. Clash, John & Yoder, Bradley W. (eds.) – Global Perspectives on Human Rights – Lanham, MD – Rowman & Littlefield. 2014. –Pp. 312.
15. Nussbaum, Martha C. Creating Capabilities: The Human Development Approach. Cambridge.: MA – Belknap Press. 2011. –Pp. 24.